AYOLNING JAMIYATDAGI O'RNI VA MILLIY MENTALITET: O'ZBEK ADABIYOTIDA BADIIY TALQIN

Eshquvvatova Hilola Ro'zi
Termiz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Anotatsiya: Mazkur maqolada ayolning jamiyatdagi o'rni, uning oilaviy va ijtimoiy hayotdagi mavqei hamda o'zbek milliy mentalitetida tutgan ahamiyati o'zbek adabiyoti misolida badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek yozuvchi va shoirlari asarlarida ayol obrazining ma'naviy-axloqiy qiyofasi, fidoyiligi, sabr-toqati va milliy qadriyatlarni asrashdagi roli yoritiladi. Maqolada milliy mentalitetning ayol obrazini shakllantirishdagi o'rni hamda zamonaviy adabiyotdagi talqinlar ilmiy asosda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar:ayol obrazi, jamiyat, milliy mentalitet, o'zbek adabiyoti, badiiy talqin, ma'naviyat, oila, qadriyat, ayol mavqei, milliy an'analar, adabiy obraz, ma'rifat.

Аннотация:В данной статье анализируется роль женщины в обществе, её место в семейной и социальной жизни, а также значение в национальном менталитете на примере узбекской литературы. Особое внимание уделяется художественному изображению женского образа в произведениях узбекских писателей и поэтов, раскрытию её духовно-нравственных качеств, терпения, преданности и роли в сохранении национальных ценностей. Также рассматривается влияние национального менталитета на формирование женского образа и его интерпретация в современной литературе.

Ключевые слова:образ женщины, общество, национальный менталитет, узбекская литература, художественная интерпретация, духовность, семья, ценности, положение женщины, национальные традиции, литературный образ, просвещение.

Abstract: This article analyzes the role of women in society, their position in family and social life, and their significance in the national mentality through the examples of Uzbek literature. The study highlights the artistic interpretation of female characters in the works of Uzbek writers and poets, revealing their spiritual and moral qualities, patience, devotion, and role in preserving national values. The article also examines the influence of national mentality on the formation of female images and their interpretation in modern literature.

Keywords:female image, society, national mentality, Uzbek literature, artistic interpretation, spirituality, family, values, women's status, national traditions, literary image, enlightenment.

Jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishida ayolning o'rni beqiyosdir. Ayol-nafaqat oila bekasi, balki avlod tarbiyachisi, ma'naviyat targ'ibotchisi va ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisidir. O'zbek milliy mentalitetida ayolga bo'lgan munosabat yuksak hurmat va ehtirom asosida shakllangan bo'lib, bu qadriyatlar asrlar davomida sayqallanib kelmoqda. Adabiyot esa jamiyat hayotining aks-sadosi sifatida ayol obrazini turli qirralarda yoritib beradi. Ayniqsa, ayol ijodkorlar asarlarida ayolning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy faolligi chuqur tahlil etiladi. Shu jihatdan Saida Zununova, Zulfiya va Halima Xudoyberdiyeva ijodi alohida ilmiy-estetik ahamiyatga ega. I. Saida Zununova ijodida ayolning ma'rifatli, jasur va vatanparvar obrazi. Saida Zununova ijodi o'zbek adabiyotida ayol obrazining yangicha talqinini boshlab bergan ijodiy manbalardan biridir.

Uning asarlarida ayol obrazi an'anaviy chegaralardan chiqib, zamonaviy, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida gavdalanadi. Zununova ayolni eng avvalo ma'rifatli inson sifatida talqin qiladi. Uning qahramonlari bilim olishga intiluvchi, hayotda o'z o'rnini topishga harakat qiluvchi obrazlardir. Bu orqali yozuvchi ayolning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ilm va tafakkur bilan bog'laydi.

Saida Zununova o'zbek adabiyotida ayol qalbining nozik kechinmalarini onalik mehri hamda jamiyki ayolga xos ruhiy olamni chuqur tasvirlagan shoiralardan biridir. Shu o'rinda shoira qalamiga mansub "Qizimga" she'ri ayol obrazining eng muqaddas qiyofasi hisoblangan ona obrazi orqali ochib bergan. She'rda ayol avvalo mehr manbai, himoyachi tarbiyachi, eng go'zal qadriyat sifatida gavdalanadi,qahramon-ona qiziga mutojaat Qizlar undagi tuyg'ular samimiy sof, mehrga limo-lim to'la:

"Yer uzra qo'ndi oqshom oy shul'asi bir mayın,
Kel oppog'im kel erkam seni allalayin."

Shoiraning "Qalb" she'rida ayol qalbining qanchalik sabr-toqatli, kuchli hamda nozik bir dunyo sifatida qalamga olgan. Anashu jihatlar quydagi mısralarda o'z aksini topadi

" Har narsaga kuyma deyishar,
Kuymagan yurakni nima qilaman.
Ortiqcha yuk qilib uni tanaga,
Yonmagan yurakni nima qilaman"

Shoira bu orqali ayol hayotidagi jamiki murakkabliklar hissiyotlar va sabrni yoritadi.U ayolni nafaqat oilaviy doirada balki Ijtimoiy hayırda faol fikrlovchi shaxs sifatida yoritib berishga harakat qilgan.Shuningdek, yozuvchi ijodida ayolning jasorat va qat'iyati muhim o'rin tutadi. Qahramonlar turli ijtimoiy

to‘siqlarni yengib o‘tib, o‘z hayot yo‘lini mustaqil belgilashga intiladi. Bu esa ayolning ichki kuchi va irodasini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Zununova asarlarida vatanparvarlik g‘oyasi yetakchi o‘rin egallaydi. Ayol obrazi Vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan, jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi.

Zulfiya ijodida ayolning ijtimoiy faolligi va ma’naviy qudrati.

Zulfiya ijodi o‘zbek she’riyatida ayol ruhiyatining badiiy ifodasida alohida o‘rin tutadi. Shoira ayol qalbining eng nozik jihatlarini chuqur lirizm orqali ochib beradi. Zulfiya asarlarida ayol ijtimoiy faol shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. U jamiyat muammolariga befarq emas, balki ularga o‘z munosabatini bildiruvchi, faol pozitsiyaga ega inson sifatida tasvirlanadi. Bu esa ayolning jamiyatdagi rolini kengaytirishga xizmat qiladi. Zulfiya ijodida ayol faqatgina lirik qahramon emas, balki butun bir millatning axloqiy,estetik, ma’naviy timsoli sifatida gavdalanadi. Uning she’rlarida ayol – mehribon ona,sadoqatli yor,sabrli umr yo‘ldoshi, fidoyi mehnatkash va vatanparvar inson sifatida tasvirlanadi. Masalan, “Ona” she’rida onaning mehr-shafqati, fidoyiligi, sabr-toqati shunchalik yurakka ta’sirli yetkazilganki, bu obraz umumiy onalik timsoliga aylangan.Zulfiya ijodida ayol obrazlari bir necha asosiy poetik tiplarga ajraladi:

1. Onalik obrazlari: shoiraning bir qator she’rlarida onalik motivi asosiy semantik yadroni tashkil etadi.

“Ona”, “Ona yodi”, “Ona qo‘shig‘i” kabi she’rlarida ayol hayot va mehr timsoli sifatida tasvirlanadi. Onalik timsoli — milliy qadriyatlar, fidoyilik, sabr-matonat bilan uyg‘unlashgan.

2. Lirik sevgi obrazlari: Zulfiya sevgi lirikasida ayol obrazi — yor, mahbuba, iztirobli qalb egasi sifatida gavdalanadi. Bunda ichki monolog, kechinma va ruhiy

iztirob poetik markazga chiqadi. Bu obrazlar "Sevgilim", "Ko'zimning nuri", "Sendan so'ng" kabi she'rlar orqali tasvirlangan.

3. Ijtimoiy faol ayol obrazlari: Zulfiya she'rlarida mehnatkash, jamoatchi, ziyoli ayol obrazlari keng ifodalangan. Bu obrazlar shoira ishtirok etgan ijtimoiy-falsafiy diskurslar bilan bog'liq: ayolning ijtimoiy tenglikka da'vati, millat ravnaqi yo'lida fidoyiligi

4. Vatanparvar ayol obrazlari: urush davrida yozilgan she'rlar ("Matonat", "Shu qiz edi", "Xotira")da ayol — Vatan va erk timsoli sifatida yuksak ideal darajasiga ko'tariladi. U zamonaviy "epik lirik" obraz darajasida talqin etiladi.Zulfiya she'riyati o'zbek adabiyotida ayol obrazini poetik konsepsiyaga aylantirishda o'ziga xos maktab yaratgan. Uning she'rlarida ayol – ruhiy olam, ma'naviy ustunlik, mehnat,sadoqat, muhabbat va vatanparvarlik timsoli sifatida badiiy timsollashtirilgan. Ayol obrazlarining tasnifi orqali Zulfiya poetikasining ichki struktura va semantik qatlamlarini aniqlash mumkin bo'lib, bu adabiyotshunoslikda yangi yondashuvlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, u zamonaviy gender yondashuvlar asosida milliy badiiy tafakkurda ayol mavqeini qayta talqin qilish imkonini beradi.[3]

Halima Xudoyberdiyeva ijodida ayolning milliy qiyofasi va ruhiy pokligi XX asrning ikkinchi yarmida ayol obrazi yanada murakkablashib, ichki kechinmalar, ruhiy iztiroblar, orzu intilishlar orqali talqin etila boshlandi. Xudoyberdiyeva ijodi ana shu jarayonning mantiqiy davomi sifatida, ayol timsolini milliy, ijtimoiy va falsafiy mazmun bilan boyitdi. Halima Xudoyberdiyeva o'zbek ayolining ruhiy dunyosini samimiyat bilan ifoda etgan shoira. Uning she'rlarida ayol nafaqat ona, yor yoki muhabbat timsoli, balki kuchli shaxs, vatan fidoyisi sifatida tasvirlanadi. Shoiraning "Ayol", "Vatan", "Ona

yurtim", "Ona tilim" kabi she'rlarida ayolning qalbiy kechinmalari, hayotiy tajribalari va ma'naviy qadr-qimmati yuksak darajada tasvirlangan:

"Ayol -mehr, ayol- oriyat, ayol- hayot,

Millat yuragi, millatning iftixori u." Bu misralar shoiraning ayolga bo'lgan yuksak e'tiqodini, uni jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida ko'rganini yaqqol ifodalaydi. Halima Xudoyberdiyeva yaratgan ayol timsoli o'zbek ayolining ma'naviy barkamolligi, sabr-toqati va or-nomusini ifodalaydi. Shoira ijodida ayol faqat uy bekasi emas, balki millatning ma'naviy ustuni, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Ayol -bu jamiyatning ma'naviy tayanchi. U oilaning, xalqning, millatning tarbiyachisi sifatida ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutadi.Halima Xudoyberdiyeva ijodi o'zbek ayolining milliy qiyofasini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Shoira ayolni milliy qadriyatlar va an'analar bilan uyg'un holda tasvirlaydi.Uning asarlarida ayol hayo, ibo va sadoqat timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Bu orqali muallif milliy mentalitetning asosiy belgilarini ochib beradi. Xudoyberdiyeva ijodida ayolning ruhiy pokligi alohida ta'kidlanadi. Ayol halollik, samimiylik va vijdoniy poklik sohibasi sifatida tasvirlanadi. Bu esa ayol obrazining ma'naviy yuksakligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiyotida ayol obrazi jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi muhim badiiy vositadir. Saida Zununova, Zulfiya va Halima Xudoyberdiyeva ijodida ayol turli qirralarda tasvirlangan bo'lsa-da, ularning barchasida ayol yuksak fazilatlar sohibasi sifatida talqin etiladi. Ayol – ma'rifatli, jasur, vatanparvar, ruhiy jihatdan kuchli va milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Shu bois ayol obrazini o'rganish nafaqat adabiy, balki ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ham egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Xudoyberdiyeva H. Saylanma 1- jild. Toshkent. G'afur G'ulom.2008

2.Zununova S. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1983

3.Zulfiya Mo'minova "Dilimdan so'z ochsam , Ayolga baxt bering "- Hurriyat gazetasi 2015.07.02

4. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.

5. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.

6. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.

7. Zafariddin Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.